



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TILLAR FAKULTETI
O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2023-yil, 15-may

BUXORO – 2023

ILMIY ANJUMANNING DASTURIY QO'MITASI

1. M.I. Daminov – Buxoro davlat Pedagogika instituti direktori, rais;
2. Sh.N. Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. A.A. Ikramov – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. D.A. Tosheva – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. N.I. G'aybullayeva – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrasida mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
8. S.X. Mahmudova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
9. M.Sh. Boltayeva – O'zbek va rus tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo;
10. Z.A. Salixova – O'zbek va rus tillari kafedrasida katta o'qituvchisi, a'zo;
11. D.H. G'afurova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
12. N.N. Mirjonov – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
13. M.U. Usmonova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
14. N.O. Avazova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
15. H.S. Ubaydova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. Sh.N. Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais;
2. A.A. Ikramov – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, rais muovini;
3. Sh.A. Raximov – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, a'zo;
4. D.A. Tosheva – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
5. N.I. G'aybullayeva – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, a'zo;
6. R.A. Saidova – O'zbek va rus tillari kafedrasida mudiri, a'zo;
7. G.B. Rustamova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
8. S.X. Mahmudova – O'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, a'zo;
9. M.Sh. Yunusova – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
12. N.N. Mirjonov – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
13. T.L. Chxetiane – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo;
14. L.M. Mustafoyeva – O'zbek va rus tillari kafedrasida o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandi birinchi xatboshisida belgilangan 2023-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshirig'i, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida 118-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2023-yil 5-may kuni Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasida "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

R.A.Saidova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

G'.N.Murodov – filologiya fanlari doktori, professor

N.I.G'aybullayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Corpora ethnographica online: Strategien der Digitalisierung kultureller Archive und ihrer Präsentation im internet (Rostocker Beiträge zur Volkskunde und Kulturgeschichte, 5). (ss. 119-129). Waxmann.

13. Yavuz, C. (2021). "Bindiği dalı kesmek": Türk Dünyası Folklorunda Eş ve Benzer Yaratmalara Nasıl Y. *Uluslararası Kıbrıs Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi*, 27(107), 749-770. <https://doi.org/10.22559/folklor.1591>

Elektronik Kaynaklar

URL-1 <https://www.springer.com/series/15727>

URL-2 <https://www.verhalenbank.nl/about>

URL-3 <https://swco-ir.tdl.org/handle/10605/355119>

URL-4 <https://www.masal.gov.tr/>

FOLKLORDA BOLA TARBIYASIGA E'TIBOR

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna

*filologiya fanlari doktori, Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori*

Vayisova Dilnurabonu Nabijon qizi

Buxoro davlat universiteti talabasi

***Annotatsiya:** Maqolada farzand tarbiyasida folklor janrlari, xususan, alla, ertak va bolalar o'yinlarining o'rni, roli, ma'naviy ta'siri haqida so'z yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** folklor, bolalar tarbiyasi, bolalar folklori, alla, ertak, o'yin.*

O'zbek xalqi nihoyatda bolajonlik va bolaparvar. Bu xususiyat xalqimiz orasida yuksak fazilat, milliy o'ziga xoslik darajasida takomil topgan. Xalqimizda bola dunyoga kelgan ondan boshlab, uni to'g'ri va yaxshi, sog'lom qilib unib-o'stirishga katta ahamiyat qaratiladi. Shuning uchun "Uch og'ayni botirlar" nomli o'zbek xalq maishiy ertagida ota o'z o'g'illarini tarbiyalashda uch narsaga jiddiy rioya qilgani bejizga hikoya qilinmaydi. Binobarin, ota farzandlarini sog'lom, qurol-yarog' ishlatishni biladigan, hech narsadan qo'rqmaydigan, botir qilib o'stiradi. Shu bilan birga, u o'g'illariga uch hikmatni ham uqtiradi: birinchisi – "To'g'ri bo'ling, bexavotir bo'lasiz"; ikkinchisi – "Maqtanchoq bo'lmang, xijolat tortmaysiz"; uchinchisi – "Dangasalik qilmang, baxtsiz bo'lmaysiz" deya. Ko'rinadiki, bular xalq orasida bola tarbiyasining eng muhim tamoyillari ekanligi ertak vositasida uqtirilmoqda.

Ma'lumki, xalqimiz orasida chaqaloqli xonadonga kirib-chiqishning ham o'z tartib-qoidalari shakllangan. To'g'ri, ular biror hujjat asosida qayd qilinmagan, rasmiylashtirilmagan. Shunday bo'lsa-da, hamma unga birdek rioya qilishi azaliy an'ana tusini olgan. Jumladan, chaqaloqli uyga

namozshomdan so'ng kirib chiqilmaydi. Agar bu taqiq buzilguday bo'lsa, bolaga zarar yetadi, ya'ni xalq tilida aytganda, "balo yo'liqadi", deb qaraladi. Bunday mifologik qarashlar xalq asarlarida ham alohida uqtirilgani kuzatiladi:

Bemahalda yursang sayoq,
Balo kelar bosh ustina.
Oxir bo'lib ishing chatoq,
Yuk tushar qardosh ustina. [6: 388].

Ota-ona vazifasi va farzandlik burchi haqida o'zbeklar orasida yana shunday naql bor: "Farzandning burchi o'lchovsiz, behaddir; ota-onaning esa farzand oldida uch muqaddas qarzi bor: go'zal ism berish, yaxshi tarbiya qilish va boshini ikkita qilib qo'yish...". Demak, oilada bola tarbiyasi, avvalo, unga yaxshi va munosib ism topib qo'yishdan boshlanadi. Hatto bu ta'kid onalar allasida alohida e'tirof qilinishi kuzatiladi:

Senga qo'ydim yaxshi ot, alla,
Yaxshi niyatdur murod, alla.
Yurtu elga suyansang, alla,
Senga bo'lg'usi qanot, alla. [6: 388].

Qadimgi zamonlardan beri xalqimizda dunyoga kelgan chaqaloqning ismini qo'yishda muayyan udumlarga, qoidalarga amal qilinadi. Chunki qadimgi insonlar o'z ismini tanasining bir qismi deb qaraganligi sabab odamlar o'rtasida ismlar bilan bog'liq tabular, urf-odat va an'analar shakllangan. [4: 188-250]. Tug'ilgan bolaga ism qo'yishda donishmandlarga, avliyolarga murojaat qilingan. Maxsus kitoblardan foydalanilgan. Bunda, albatta, bolaning qaysi sulolaga mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi, tavallud topgan vaqti, sog'lomligi inobatga olingan. Bir so'z bilan aytganda, bolaga ism qo'yish nihoyatda jiddiy va mas'uliyatli vazifa sifatida qaralgan.

Xalq o'zi yaratgan ma'naviy meros – folklor asarlari, ayniqsa, uning asosiy qismini tashkil etuvchi bolalarni avaylovchi va erkalovchi qo'shiqlar orqali, bolalarga hayotiy hodisalarning mohiyatini, insoniy muomalamunosabatlarni, axloq-odob qoidalarini o'rgatishga intilgan. Bunday ma'naviy sarchashmalar kelajak avlodning har tomonlama barkamol bo'lib ulg'ayishida, hayotda o'z munosib o'rnini topa olishida haqiqiy meros vazifasini o'tab kelgan. Aytaylik, bola Vatan, el, yurt tushunchalarini ayni go'daklik davridan, onasi kuylagan allalardan ilg'ay boradi. Jumladan, onalar hali bolasi gapni tushunmasa-da, o'z allalarida baribir bolasiga bu muqaddas tushunchalarni anglatishga urinishi seziladi:

Ulg'ay, bolam, gul Vatanda, alla,

Botir bo'lib o'sgil, qo'zim, alla.
Seni ko'rib bu chamanda, alla,
Yayrab-quvonay, yulduzim, alla. [1: 124].

Allada o'z farzandini el-yurtga munosib qilib kamolga yetkazishni niyat qilgan onaning cheksiz mehri va yuksak orzu-istagi namoyondir. Ona bolasi qulog'iga go'daklikdan Vatan, xalq tushunchalarini quyishga intilishi shu mehr va istakning isboti sanaladi. Qolaversa, "Bola – loy, ona – kulol", yoki "Beshikda tekkan, kafanda ketar" deganlaridek, bolaga yoshlikdan qanchalik to'g'ri tarbiya, o'git berilsa, uning kelajagi shunchalik porloq bo'ladi.

Bolalarga hayot saboqlarini o'rgatishda xalq o'yinlarining alohida o'rni bor. Zero, aksariyat o'yinlarda jamiyat va oila hayoti aks ettirilganligi kuzatiladi. Aytaylik, qizaloqlarga kelinlik sabog'i aslida ularning bolalikda o'ynaydigan o'yinlari vositasida singdirib boriladi. Masalan, "Qalpoq tepdi" an'anaviy xalq o'yini bu jihatdan alohida e'tiborni tortadi. Unda uquvsiz, hali turmushga tayyor emas qiz obrazi gavdalantiriladi:

– Qizim, qizim, qizomadi,
Eski to'nim yamomadi,
Sochlari ham uzomadi,
Bog'iga kirsam ho'jak,
Jug, jug, jug, ho'jagim demadi.

Bu o'yin aslida koptok o'yinining qadimiy turlaridan biridir. U bolalar ijro qiladigan yuqoridagi qo'shiq jo'rligida o'ynaladi. U orqali bolalar hushyorlikka, hayot zarbalariga hamisha shay turishga da'vat qilinadi. Ushbu o'yin shartiga ko'ra, bir bola o'rtada yotgan qalpoqni boshqalarning tepib ketishidan qo'riqlaydi. Bordi-yu birorta bola tepib, chiqarib qo'ygudek bo'lsa, boshqalar tepib ketib qolishadi. Qolgan bolalar esa: "Chur, churr, churr", – deb tezlik bilan marraga kelib turadilar.

Xullas, farzand – belning quvvati. Ammo uni belga haqiqiy quvvat bo'la oladigan qilib tarbiyalash juda nozik ish. Bu ota-onadan katta e'tiborni, sabr-toqatni, cheksiz mehrni talab etadi. Agar yosh ota-ona bu ishda xalq an'alariga tayanib ish yuritsa, ko'zlagan maqsadiga oson erishishiga shubha yo'q.

ADABIYOTLAR:

1. Алла-ё алла: Ўзбек халқ аллалари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Ўқитувчи, 1999. – Б.124.
2. Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 245 б.
3. Шоода-шоода марварид: Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Шарқ, 2006. – Б.388.

РАЗГОВОРНАЯ ПРАКТИКА НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА Раджабова Л.	219
INTEGRATION OF LANGUAGE SKILLS Sadullayeva Nazokat Jamshidovna.....	223
ИНТЕГРАЦИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ Саттарова Дилрабо.....	226
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING O'QITILISHIDA MILLIY DASTURNING O'RNI Sultonova Gulasal.....	229
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В АСПЕКТЕ ТЕОРИИ И МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО И РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НЕРОДНОГО Тохирова Ойсанам Убайдова Хулкар	233
ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ. ПРОСВЕЩЕНИЯ Убайдова Д. А. Абулова М.О.,	236
РОМАНТИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ В ЛИТЕРАТУРЕ. ОСОБЕННОСТИ РОМАНТИЗМА В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ Убайдова Д. А. Диллиева Х.И.....	240
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА Хамраева Лола.....	244

IV SHO'BA. FOLKLORSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

DİNÎ KAVRAM ADLARIYLA KURULMUŞ ÖZBEK ATASÖZLERİNİN ANLAM DEĞERLERİ ÜZERİNE BİR İNCELEME Doktor Merve Yorulmaz Kahve*	249
FOLKLOR ARAŞTIRMALARI VE DİJİTAL VERİ TABANLARI Cemalettin Yavuz*... 257	257
FOLKLORDA BOLA TARBIYASIGA E'TIBOR O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna Vayisova Dilnurabonu Nabijon qizi.....	265
INSONLARNING XARAKTER-XUSUSIYAT VA SHAKL KO'RINISHINI IFODALOVCHI DIALEKTAL LEKSEMALAR (BUXORO VILOYATI, G'IJDUVON TUMAN SHEVASI MISOLIDA) Avazova Nilufar Oqiljon qizi	268
ФИЛОЛОГИЯ КАК СЕРДЦЕВИНА КУЛЬТУРЫ Иззатиллоева Сабрина	271
ФЕТИШТИК ИШЕНИМДЕРДИН (ТУЛ, БУТ, БУРКАН) "МАНАС" ЭПОСУНДА КӨӨНӨ МОТИВ КАТАРЫ БЕРИЛИШИ К.Ж. Маданова	278
ASQAD MUXTORNING "YO'L" SHE'RI TARKIBIDA QO'LLANGAN "YO'L" LEKSEMASINING SEMANTIK TAHLILI Maxmudova Sadoqat Xolmatovna To'rayeva Ferangiz Elyarovna	285
КОНЦЕПТ «ТРУД» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОК) Мухамедова Саодат Халимовна	288
JAHON VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA DARAXT – JON VA RUH ORQALI AKS ERTADIGAN PARADIGMATIK MUNOSABATLAR Bozorova Dilovar Rustamova Gavhar	291
КЫРГЫЗ ЖАНА ӨЗБЕК ТИЛДЕРИНДЕГИ САПАТТЫК (АСЛИЙ) ЖАНА КАТЫШТЫК (НИСБИЙ) СЫН АТООЧТОР Сулайманова Мехринса Ибрахимовна Туйдиева Ширин Б.Сыдыков Усарова Г.У. Бактыбек кызы Гүлнур, Абдуразакова Бахринисо	297